

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

PATENT HUQUQI YO`NALISHIDAGI XALQARO HUJJATLAR TASNIFI VA ULARNING MOHIYATI

Abdug`aniyev Sobir Abdug`afur o`gli

Toshkent davlat yuridik universiteti, intellektual mulk
va axborot texnologiyalari huquqi mutaxassisligi magistranti
sabeermardoni@gmail.com

ANNOTATSIYA

Intellektual mulk obyektlarini muhofazalash ixtirolarni muhofazalashdan, ya'ni, patent huquqidan boshlandi. Tarixdan ma'lumki, patent huquqi sohasi intellektual mulkning birinchi instituti hisoblanadi. Bugungi kunda ham patentning muhimligini hisobga olib, sanoat mulki norasmiy tarzda patent huquqi deb ataladi. Dunyo bo'yicha Patent huquqi yo`nalishida ko`plab xalqaro hujjatlar va konvensiyalar mavjud bo`lib, ular, asosan, patentni himoya qilish, unga talabnoma topshirish, sanoat mulki obyektlarini xalqaro ro`yhatdan o`tkazish, ularni tijoratlashtirish va boshqa patent huquqi bilan bo`g`liq munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur maqolada O`zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan patent huquqi sohasidagi xalqaro hujjatlarni batafsil ko`rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: patent huquqi, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, xalqaro talabnoma, ustuvorlik huquqi, Butunjahon intellectual mulk tashkiloti, patent vakili.

CLASSIFICATION AND ESSENCE OF INTERNATIONAL DOCUMENTS IN THE FIELD OF PATENT

ABSTRACT

The protection of intellectual property objects began with the protection of inventions, clearly, with patent rights. Historically, the field of patent law is the first institution of intellectual property. Given the importance of patents even today, industrial property is informally referred to as patent rights. There are many international documents and conventions in the field of patent law around the world, which are mainly related to patent protection, filing an application, international registration of industrial property objects, their commercialization and other patent



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

rights that regulates this field. In this article, we will consider international documents in the field of patent law ratified by Uzbekistan in detail.

Keywords: patent law, invention, utility model, industrial design, international application, priority right, World Intellectual Property Organization, patent representative.

Bugungi kunda dunyoda fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi natijasida insonning intellektual faoliyati turli ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, dunyoning ko'plab davlatlari postindustrial davrga kirib keldi. Bunday jamiyatda bilimlar, g'oyalar, ixtirolar, axborotlar asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanadi. Ixtirolarni huquqiy himoya qilish sohasida yangi tendensiyalari yaratildi. Patent to'g'risidagi qonun hujjatlarini uyg'unlashtirish va unifikatsiyalashda sezilarli yutuqlarga erishildi. Patentlashning an'anaviy milliy tizimlari bilan bir qatorda mintaqaviy patent tizimlari (Yevropa, Yevroosiyo va boshqalar) paydo bo'ldi va rivojlanishda davom etmoqda. Bu esa, dunyoning deyarli barcha davlatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham intellektual mulkning xalqaro almashinuviga olib kelmoqda.

Umuman olganda, Patent huquqi bu – yangi texnik va dizayn yechimlarini hamda o'simliklarning yangi navi yoki hayvonlarning yangi zotini himoya qiladigan huquq tarmog'i hisoblanadi. Patent huquqi intellektual mulkning eng murakkab institutlaridan biri hisoblanadi, sababi patentni ro'yxatdan o'tkazish va himoya qilish nafaqat huquq sohasidagi, balki tegishli texnika sohasidagi bilimlarni ham talab qiladi. Patent so'zi lotincha: patents – ochiq, aniq, ravshan – texnik yechim yoki ixtironing davlat tomonidan etirof etilganligini va ixtirochining o'z ixtirosiga olgan mutloq huquqini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. U odatda ixtirochining, foydali model, sanoat namunasi va o'simliklarning yangi navi yoki hayvonlarning yangi zoti muallifning o'z ixtirosini oshkor qilish evaziga davlat tomonidan huquqiy himoya berilishini kafolatlovchi hujjat sanaladi. Patent bu kashfiyot yoki biror yangilik, ishlab chiqarish uskunasi namunasi kabi biror-bir narsaga bo'lgan muallifning mutloq huquqini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, uning asosiy vazifasi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

muallifning huquqini himoya qilishdir. Patent huquqi islom huquqshunosligida ham tan olinadi va himoya qilinadi.¹

Patent huquqining **turlari** – patent huquqlari obyektlarning turlari va huquqlarning tarkibiga ko‘ra ajratiladi:

- obyekt turiga ko‘ra: patent huquqlari ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlariga berilgan patentlarga bo‘linadi;
- huquqlarning tarkibiga ko‘ra: tarkibda mulk huquqi (mutlaq huquq) va shaxsiy nomulkiy huquqlar (mualliflik huquqi). Mutlaq huquqlar bu texnik yoki badiiy yechimni har qanday usulda tasarruf etish qobiliyatidan iborat. Mualliflik huquqi (shaxsiy nomulkiy huquqlar) esa ixtiro, foydali model, sanoat namunasi yoki seleksiya yutug‘ining muallifi sifatida tan olinishi uchun qonuniy yo‘l bilan berilgan imkoniyatdir².

Endi bevosita patent huquqiga doir xalqaro hujjatlar bilan tanishib chiqsak. Hozirda Butun jahon intellectual mulk tashkiloti (BIMT) intellektual mulkka oid 26 ta shartnoma va konvensiyalarda boshqaruvchilik funksiyasini amalga oshiradi. Ushbu hujjatlarni shartli ravishda 3 turga ajratish mumkin. Bular:

- intellektual mulk himoyasi,
- global himoya tizimi,
- klassifikatsiyaga oid hujjatlar.³

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi intellectual mulk sohasida BIMT tomonidan boshqariladigan 16 ta xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan. Ushbu xalqaro hujjatlarning 8 tadan ko‘prog‘i patent huquqiga doir hujjatlar sirasiga kiradi. Patent huquqining asosiy **xalqaro manbalari** quyidagilar:

- 1883-yildagi Sanoat mulkini himoya qilish bo‘yicha Parij konvensiyasi;
- Xalqaro sanoat namunalari deponentlash to‘g‘risida Gaaga bitimi (Gaaga, 1925-yil 6-noyabr);
- Xalqaro patent tasnifi to‘g‘risida Strasburg bitimi (1971-yil).

¹ Ислом молияси. Исломда ақл-заковат, муаллифлик ва номоддий бойликларга эга бўлган ҳуқуқ [Электрон ресурс] islommoliyasi.uz. 06.07.2020.

² Рахматов А.И., Якубова И.Б. Патент ҳуқуқи. Дарслик. – Т.: ЮМОМ нашриёти, 2021. – 202 б.

³ <https://www.wipo.int>



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- Patent protsessual maqsadlarda mikroorganizmlami deponlashtirishni xalqaro tan olish haqida Budapesht shartnomasi (1977-yil).
 - Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta'xis etish to'g'risida Lokarno bitimi (1968-yil).
 - Vashington Patent kooperatsiyasi to'g'risida shartnoma (PST 1970-yil);
 - 1994-yilgi Yevrosiyo patent konvensiyasi;
 - 2000-yil 1-iyundagi Patent huquqi shartnomasi (PLT).
- Quyida yuqoridagi xalqaro shartnomalarning har biri bilan batafsil tanishib chiqamiz va uning mazmunini yoritamiz.

Sanoat namunalarini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi (1883).

1883-yilda Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi qabul qilindi. Hozirda ushbu shartnomaga 176 ta davlat a'zodir. Mazkur xalqaro shartnoma mualliflarga o'z intellektual asarlarini boshqa mamlakatlarda himoya qilishda yordam berishga qaratilgan birinchi qadam bo'ldi.

Parij konvensiyasi patentlar, tovar belgilari, sanoat namunalari, foydali modellar, firma nomlari, geografik ko'rsatkichlar (tovar kelib chiqishi ko'rsatkichlari va tovar kelib chiqqan joy nomlari) va adolatsiz raqobatni chek qo'yishga doir masalalarni tartibga soladi. Parij konvensiyasining 1-moddasiga ko'ra sanoat mulki tushunchasi keng ma'noda talqin qilinadi va sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, qazib olish sanoati, barcha mahsulotlar sanoati shular sirasiga kiritiladi⁴.

Konvensiyaning asosiy qoidalari uch toifaga bo'lingan: **milliy rejim, ustuvorlik huquqi, umumiy qoidalar.**

Milliy rejim. Milliy rejim qoidalarga asosan Konvensiyada qatnashuvchi har bir davlat unda qatnashuvchi boshqa davlatlar fuqarolariga nisbatan sanoat mulkini huquqiy muhofaza qilish sohasida o'z fuqarolariga qanday huquqlar bersa xuddi shunday huquqlar berishi lozim. Ayni vaqtda garchi Konvensiya ishtirokchisi bo'lmagan davlatning fuqarosi bolsa ham, biroq Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan davlatlarda istiqomat qilsa yoxud o'sha davlatda soxta bolmagan sanoat yoki savdo korxonalariga ega boisa ham Konvensiya tomonidan beriladigan huquqiy muhofazadan foydalanadi.

⁴ Вожжов Р. А. ПРОМЫШЛЕННАЯ СОБСТВЕННОСТЬ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ //ИННОВАЦИОННАЯ НАУКА: ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ, БУДУЩЕЕ. – 2016. – С. 36.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ustuvorlik huquqi. Konvensiyada ustuvorlik sanasiga bolgan huquq **patentlarga, tovar belgilari, sanoat namunalariga** nisbatan mustahkamlangan. Unga ko`ra, Konvensiya qatnashchisi bolgan davlatlardan biriga to`g`ri rasmiylashtirilgan ariza (talabnoma) bergan talabnomachi muayyan belgilangan muddat davomida (ixtirolarga va foydali modellar patentlariga 12 oy, tovar belgilari va sanoat namunalariga 6 oy) boshqa har qanday ishtirokchi davlatlardan muhofaza so`rab murojaat etishi mumkin. Bunda keyingi talabnomalar birinchi marta berilgan ariza (talabnoma) sanasida berilgan hisoblanadi. Bu qoidaning amaliy afzalligi shundaki, agarda talabnoma beruvchi o`zi yaratgan obyektga nisbatan bir necha mamlakatlarda huquqiy muhofaza olmoqchi bolsa, u birvaqtning o`zida barcha mamlakatlarga talabnoma berishi shart emas, uning ixtiyorida 6 oy yoki 12 oy bor, bu muddat ichida u qaysi mamlakatlarda huquqiy muhofaza olish maqsadga muvofiqligi, muhofazani ta'minlash uchun nimalar qilishi lozimligi bo`yicha puxta reja tuzishga ulguradi.

Umumiy qoidalar. Konvensiyada barcha ishtirokchi davlatlar rioya qilishlari shart boigan qator umumiy qoidalar belgilangan. Ularni patent huquqiga doirlarini ko`rib chiqamiz.

- a) Patentlarga nisbatan: turli ishtirokchi davlatlarda aynan bir ixtiroga berilgan patentlar bir-biridan mustaqildir; bir ishtirokchi davlatning patent berishi boshqa ishtirokchi davlatning ham patent berishini ham shart qilib qo`ymaydi. Bir ishtirokchi davlatda patent berish rad etilganligi, bekor qilganligi, uning muddati o`tganligi boshqa ishtirokchi davlatda patent berishni rad etishga, uni muddati tamom bo`lgan deb e`lon qilishga yoki patentni bekor qilishga asos bo`lmaydi.
- b) Ixtirochi patentda o`z nomining ko`rsatilishi huquqiga ega. Agarda milliy qonunchilikka asosan patentlangan usul bo`yicha tayyorlangan buyumni sotish taqiqlangan yoxud cheklangan bo`lsa ham patent berishni rad etish yoxud patentni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo`lmaydi.
- c) Sanoat namunalariga nisbatan: har bir ishtirokchi davlatda sanoat namunalari muhofaza etilishi lozim va bunda sanoat namunasi ifodalangan buyum bu davlatda tayyorlanmasligi huquqiy muhofazani haqiqiy emas deb topishga asos bo`lmaydi;
- d) Milliy ma'muriyatga nisbatan: har bir ishtirokchi davlat ommani patentlar, tovar belgilari, sanoat namunalari bilan tanishtirish uchun sanoat mulki bo`yicha maxsus xizmat yoki markaziy muassasa tashkil etmog`i va rasmiy davriy axborotnoma chiqarishi lozim. Axborotnomada berilgan patent egalarining nomlari, patentlangan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ixtirolaming qisqacha izohi va qayd etilgan har bir tovar belgisi tasviri e'lon qilinib berilishi lozim.

Sanoat namunalarini xalqaro deponlashtirish to'g'risida Gaaga bitimi (1925 yil).

1925-yilda tuzilgan bitim Parij Konvensiyasi ishtirokchilari bo'lgan davlatlar uchun ochiqdir. Ushbu hujjatlarga asosan quyidagi tizim qo'llaniladi: Sanoat namunalarini xalqaro deponlashtirish yoki BIMTning xalqaro byurosi tomonidan yoxud sanoat namunasi kelib chiqqan mamlakat hisoblangan ishtirokchi davlatlarning sanoat mulki bo'yicha milliy idoralari orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro deponlashtirish ta'sir kuchi sanoat namunasi kelib chiqqan ishtirokchi davlatga ham taalluqlidir (agarda bu talabnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoki ishtirokchi davlat qonunlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa). BIMT o'z davriy axborotnomasida har bir deponlashtirilgan sanoat namunasining oshkora tasvirini yoki talabnoma beruvchining iltimosi bo'yicha rangli fotografik tasvirini e'lon qiladi. Talabnoma beruvchi e'lon qilishni 12 oydan oshmagan muddatga (xalqaro deponlashtirish sanasidan boshlab) yoki ustuvorlik so'ralgan hollarda ustuvorlik sanasidan boshlab 12 oygacha kechiktirib turishni iltimos qilishga haqli. Har bir ishtirokchi davlat xalqaro deponlashtirish to'g'risida e'lonni olgan kundan boshlab 6 oy muddat ichida muhofaza berishni rad etishga haqli. Muhofaza berishni rad etish ichki qonun talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Gaaga bitimidan foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida BIMT xalqaro byurosi rahbariy ko'rsatmalar chop etadi. Gaaga bitimi doirasida Ittifoq ta'sis etilgan, Ittifoq o'z assambleyasiga ega. Assambleyaning asosiy vazifalari Ittifoq budjetini va 20 yillik dasturini qabul qilish hamda Gaaga tizimidan foydalanish bilan bog'liq bojlar miqdorini belgilash hisoblanadi.

Xalqaro patent tasnifi to'g'risida Strasburg bitimi (1971-yil).

Bitim 1971-yilda tuzilgan, 1979-yilda tuzatishlar kiritilgan. Bitim Parij Konvensiyasining ishtirokchi davlatlari uchun ochiqdir. Bitimga asosan patentlarning xalqaro tasnifi (IPC) joriy etiladi. Bitim butun texnologiya sohasini taxminan 80 ming sarlavhadan iborat sakkizta bo'limga ajratadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Har bir sarlavhaga arab raqamlari va lotin alifbosi harflaridan iborat ramzlar belgilangan. Tegishli ramz har bir patent hujjatida e'lon qilingan patent talabnomalari va berilgan patentlarda ko'rsatiladi.

Tasniflash «Texnikaning ilgarigi darajasini» aniqlash maqsadida patent hujjatlarini qidirishda zarur.⁵ Bunday qidiruv patent beruvchi idoralar tomonidan ham, potensial ixtirochilar tomonidan ham, ilmiy tadqiqot muassasalari va boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Xalqaro tasniflashni zamonaviy darajada saqlab turish uchun u har 5 yilda ko'rib chiqiladi. Qayta ko'rib chiqish bitim tomonidan ta'sis etilgan ekspertlar guruhi tomonidan amalga oshiriladi.

Strasburg bitimi doirasida ittifoq ta'sis etilgan. Ittifoq o'z assambleyasiga ega. Assambleyaning muhim vazifalaridan bo'lib ittifoqning 2 yillik dasturi va budjetini qabul qilish hisoblanadi.

Patent protsessual maqsadlarda mikroorganizmlarni deponlashtirishni xalqaro tan olish haqida Budapesht shartnomasi (1977-yil)

Ushbu shartnoma 1977-yilda tuzilgan, 1980-yilda qayta ko'rib chiqilgan. Shartnoma Parij Konvensiyasi ishtirokchilari bolgan davlatlar uchun ochiqdir. Shartnomaning asosiy xususiyati shundan iboratki, patent protsedurasi maqsadlarida mikroorganizmlarni saqlashga ruxsat beruvchi yoki talab qiluvchi ahdlashuvchi davlat mikroorganizmni saqlash bo'yicha har qanday "xalqaro depozitariy organ"da shunday maqsadlarda saqlashni bu organ ushbu davlatda joylashganligi yoki boshqa davlatda joylashganligidan qat'iy nazar tan olishi kerak.

Patent berishning sharti ixtironi oshkor qilishdir. Odatda ixtironing oshkor etilishi yozma tavsif yordamida amalga oshiriladi. Agar ixtiro mikroorganizmga yoki undan foydalanishga taalluqli bo'lsa, yozma tavsif yordamida oshkor qilish mumkin emas va faqat mikroorganizm namunasini ixtisoslashtirilgan muassasaga saqlash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Amalda "mikroorganizm" atamasi keng ma'noda talqin qilinadi va biologik materialni o'z ichiga oladi. Uning depoziti oshkor qilish uchun zarur bo'lgan, xususan, oziq-ovqat va farmatsevtika sohasidagi ixtirolarga nisbatan qo'llaniladi.

⁵ Claus P., Hansson B. The international patent classification //World Patent Information. – 1980. – T. 2. – №. 1. –C. 13-20.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Shartnomada "xalqaro depozitariy organ" deb atalgan organ mikroorganizmlarni saqlashni ta'minlashga qodir bo'lgan ilmiy muassasa - odatda "madaniyat kolleksiyasi" hisoblanadi. Bunday muassasa o'zi hududida joylashgan ahdlashuvchi davlat tomonidan BIMT Bosh direktoriga mazkur muassasa shartnomada belgilangan muayyan talablarga javob berishi va bajarishda davom etishi to'g'risida kafolatlar berish orqali "depozitariy xalqaro organ" maqomini oladi. 2020-yil 28-iyul holatiga ko'ra, 48 ta shunday organ mavjud. Ulardan AQSHda, Rossiya Federatsiyasida, Buyuk Britaniyada, Koreya Respublikasida, Avstraliya, Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Ispaniya, Niderlandiya, Sloveniya, Fransiya, Chexiya va Yaponiyada joylashgan.

Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini o'rnatish to'g'risidagi Lokarno kelishuvi

Lokarno shartnomasi 1968 yilda tuzilgan va 1979 yilda o'zgartirilgan. Shartnoma sanoat namunalari uchun tasnifni o'rnatgan (Lokarno tasnifi). Har bir ishtirokchi davlatning sanoat mulki bo'yicha milliy idorasi sanoat namunalarini deponlashtirish va ro'yxatdan o'tkazdirishga taalluqli barcha rasmiy hujjatlarda xalqaro tasniflashning tegishli ramzlarini ko'rsatishi shart. U deponlashtirish yoki ro'yxatdan o'tkazdirishga taalluqli har bir chop etilgan materiallarda bu ramzlardan foydalanishi shart.

Shartnomada, shuningdek, Ittifoqning barcha a'zolari vakillik qiladigan **Ekspertlar qo'mitasi** tashkil etildi. Qo'mitaning asosiy vazifasi klassifikatsiyani davriy qayta ko'rib chiqishdan iborat. Tasnifni 5-tahriri 1993-yildan buyon amalda. Tasnif 32 sinf va 323 ostki sinflardan iborat. Unda shuningdek tovarlarning alfavit ro'yxati, bu tovarlar mansub boigan sinflar va ostki sinflarni ko'rsatish asosida berilgan ro'yxatda 6250 nomda turli tovarlar o'z mujassamini topgan. Lokarno bitimi doirasida Ittifoq ta'sis etilgan, u o'z assambleyasiga ega, assambleyaning muhim vazifasi ittifoqning 2 yillik dasturi va budjetini qabul qilish hisoblanadi.

Vashington Patent kooperatsiyasi to'g'risida shartnoma (PST 1970-yil)

Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma (PCT) "xalqaro" patent talabnomasini topshirish orqali bir vaqtning o'zida turli mamlakatlarning har birida ixtiro uchun patent himoyasini olish imkonini beradi. Bunday ariza har qanday PCT ahdlashuvchi davlat fuqarosi yoki shunday davlatda yashovchi shaxs tomonidan berilishi mumkin.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Odatda, talabnoma beruvchi fuqarosi yoki rezidenti bo'lgan Ahdlashuvchi Davlatning milliy patent idorasiga yoki talabnoma beruvchining xohishiga ko'ra Jenevadagi BIMT Xalqaro byurosiga topshirilishi mumkin. Agarda talabnoma beruvchi Yevropa patent Konvensiyasining ishtirokchisi bo'lgan davlatning fuqarosi bo'lsa yoki uning hududida istiqomat qiluvchi shaxs bo'lsa xalqaro talabnoma Yevropa patent idorasiga berilishi mumkin; agar talabnoma beruvchi Barbados, Madagaskar, Shri Lanka yoki Afrika intellektual mulk tashkiloti a'zosi bo'lgan davlatning fuqarosi bo'lsa yoki uning hududida istiqomat qilsa xalqaro talabnoma BIMTga berilishi mumkin.⁶

PCT nazarda tutilgan protsedura talabnoma beruvchilarga, patent idoralariga va keng ommaga quyidagi afzalliklarni beradi:

a) Talabnoma beruvchi PCT doirasidan tashqaridagi protsedura tartibga nisbatan boshqa mamlakatlarning huquqiy muhofaza yorlig'ini olish maqsadga muvofiqligi to'g'risida har bir mamlakatda mahalliy patent vakillarini tayinlash bo'yicha zaruriy tarjimalarni tayyorlash to'g'risida va milliy bojlarni to'lash bo'yicha 8-18 oy ko'proq vaqtga ega bo'ladi. Agarda talabnomaning shakli PCTda belgilangan talablarga muvofiq bo'lsa uni milliy patent idoralarida ko'rib chiqish bosqichlarida formal asoslar bo'yicha rad etilmasligi talabnoma beruvchiga kafolatlanadi.

b) Milliy patent idoralarining izlanishlar va ekspertiza o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan ishlar hajmi jiddiy ravishda kamayadi yoki unga hojat qolmaydi. Chunki xalqaro izlanishlar haqidagi hisobot yoki zamr hollarda xalqaro dastlabki ekspertiza xulosasi xalqaro talabnomaga ilova qilingan bo'ladi.

c) Har bir xalqaro talabnoma xalqaro izlanishlar to'g'risidagi hisobotlar bilan e'lon qilingani sababli manfaatdor har bir shaxs taqdim etilayotgan ixtironing patentga layoqatligi to'g'risida asoslantirilgan ma'lumotlar olishi mumkin. PCT doirasida Ittifoq tuzilgan. Ittifoq assambleyaga ega. PCT ishtirokchisi bo'lgan barcha davlatlar assambleya a'zosi hisoblanadi.

PCT tizimi yildan yilga rivojlanib bormoqda. Agar 1979-yilda 2.500 dan ortiq xalqaro talabnoma berilgan bo'lsa 1992-yilda 26.000, 2005-yilda 68.000 mingga yaqin xalqaro talabnoma berilgan.

⁶ Xalqaro xususiy huquq. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. //H.R.Rahmonqulov va boshq. /H.B.Boboyev, M.X.Rustamboyev, O.Oqyulov, A.R.Raxmanovlarning umumiy tahriri ostida. - TDYI nashriyoti, 2002,488-bet.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Patent huquqi shartnomasi (PLT 2000-yil)

Patent huquqi to'g'risidagi Shartnoma (PLT) milliy va mintaqaviy patent talabnomalari va patentlariga nisbatan qo'llaniladigan rasmiy tartib-qoidalarni uyg'unlashtirish va soddalashtirishga qaratilgan va shu bilan ushbu tartib-qoidalarni foydalanuvchilarga qulayroq qilishdir.⁷

PLT ahdlashuvchi tomon idorasi tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan talablarning maksimal ro'yxatini nazarda tutadi. Bu shuni anglatadiki, ahdlashuvchi tomon talabnoma beruvchilar va huquq egalari nuqtai nazaridan unchalik qat'iy bo'lmagan talablarni qo'yishi mumkin, biroq Shartnoma qoidalari milliy idora ariza beruvchilarga yoki ariza beruvchilarga qo'yishi mumkin bo'lgan maksimal talablarni o'z ichiga olganligi sababli majburiy hisoblanadi.

Yevroosiyo patent Konvensiyasi (1994-yil)

Ushbu konvensiya 1994-yil 9-sentabrda Moskva shahrida tuzilgan. Unga Ozarbayjon, Armaniston, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, Ukraina davlatlari a'zo hisoblanadi. Konvensiya depozitariya bo'lib BIMT bosh direktori hisoblanadi. Yevroosiyo patent tashkiloti organlari bo'lib **Ma'muriy Kengash** va **Yevroosiyo patent** idorasi hisoblanadi. Tashkilotning shtab kvartirasi Moskva shahrida tashkil topgan. Tashkilotda rasmiy ish yuritish tili rus tili hisoblanadi. Yevroosiyo patentini olish uchun talabnoma ishtirokchi davlatlarning milliy patent idoralari orqali ham berilishi mumkin. Yevroosiyo patent idorasi talabnomani Konvensiya formal talablariga muvofiqligini tekshiradi va talabnoma bo'yicha izlanishlarni amalga oshiradi. Izlanishlar natijalari haqida hisobot tayyorlanadi va talabnoma beruvchiga yuboriladi. Talabnoma va hisobot belgilangan muddat ichida (talabnoma berilgan sanadan boshlab 18 oy o'tgandan keyin e'lon qilinadi) Yevroosiyo patentini berish yoki rad etish haqida qaror 3 ekspertdan iborat kollegiya tomonidan qabul qilinadi. Yevroosiyo patentni berishni rad etish haqida qaror talabnoma beruvchini biror davlat milliy patent idorasiga patent berishni so'rab talabnoma berish huquqidan mahrum qilmaydi. Yevroosiyo patentining amal qilish muddati 20 yil.

Yevroosiyo patent Konvensiyasi BMT a'zolari bo'lgan davlatlar uchun, shuningdek sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasi, patent kooperatsiyasi

⁷ Мамедова Н. И. ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ЗАЩИТЫ ПАТЕНТНЫХ ПРАВ // Прикарпатський юридичний вісник. – 2021. – №. 2. – С. 107-113.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

to'g'risidagi shartnoma bilan bog'liq bo'lgan davlatlar uchun ochiqdir. Yevroosiyo patenti ishtirokchi davlatlarda avtomatik amal qilmaydi. U faqat patent egasi tomonidan ko'rsatilgan mamlakatlardagina va tegishli bojlar to'langan taqdirdagina amal qiladi.

Xulosa

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qilsak, bugungi kunda O'zbekistonda xalqaro me'yor talablaridan kelib chiqib intellektual mulk sohasini, ayniqsa patent huquqini rivojlantirish ishlari olib borilmoqda. Intellektual mulk sohasiga doir xalqaro shartnomalarni qabul qilinishi mamlakatning xalqaro hamjamiyatdagi imijini hamda intellektual mulk sohasining iqtisodiyotdagi o'rnini oshirishga, shuningdek, intellektual mulk huquqi himoyasini ta'minlash orqali yosh tadqiqotchi-izlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk sohasida BIMT tomonidan boshqariladigan 16 ta xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan. Ushbu xalqaro hujjatlarning 8 tadan ko'prog'i patent huquqiga doir hujjatlar sirasiga kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, patentlarni xalqaro tartibda ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish hamda O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi tadqiqot ishlari hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ishlarni jadallashtirish zarur ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishdagi xorijiy tajribani amaliyotga joriy etilishi patent egalarini huquqiy jihatdan rag'batlantirib, ko'plab zamonaviy ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari hamda o'simliklarning yangi navi yoki hayvonlarning yangi zoti boyicha yangi obyektlarni davlatimizda yaratilishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рахматов А.И., Якубова И.Б. Патент ҳуқуқи. Дарслик. – Т.: ЮМОМ нашриёти, 2021. – 202 б.
2. Ислом молияси. Исломда ақл-заковат, муаллифлик ва номоддий бойликларга эга бўлган ҳуқуқ [Электрон ресурс] islommoliyasi.uz. 06.07.2020.
3. Вождов Р. А. ПРОМЫШЛЕННАЯ СОБСТВЕННОСТЬ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ //ИННОВАЦИОННАЯ НАУКА: ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ, БУДУЩЕЕ. – 2016. – С. 36.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

4. Claus P., Hansson B. The international patent classification //World Patent Information. – 1980. – T. 2. – №. 1. –С. 13-20.
5. Xalqaro xususiy huquq. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. //H.R.Rahmonqulov va boshq. /H.B.Boboyev, M.X.Rustamboyev, O.Oqyulov, A.R.Rahmanovlarning umumiy tahriri ostida. - TDYI nashriyoti, 2002,488-bet
6. Мамедова Н. И. ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ЗАЩИТЫ ПАТЕНТНЫХ ПРАВ //Прикарпатський юридичний вісник. – 2021. – №. 2. – С. 107-113.

Xalqaro hujjatlar

1. 1883-yildagi Sanoat mulkini himoya qilish bo‘yicha Parij konvensiyasi;
2. Xalqaro sanoat namunalarini deponentlash to‘g‘risida Gaaga bitimi (Gaaga, 1925-yil 6-noyabr);
3. Xalqaro patent tasnifi to‘g‘risida Strasburg bitimi (1971-yil).
4. Patent protsessual maqsadlarda mikroorganizmlarni deponlashtirishni xalqaro tan olish haqida Budapesht shartnomasi (1977-yil).
5. Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta'xis etish to‘g‘risida Lokarno bitimi (1968-yil).
6. Vashington Patent kooperatsiyasi to‘g‘risida shartnoma (PST 1970-yil);
7. 1994-yilgi Yevrosiyo patent konvensiyasi;
8. 2000-yil 1-iyundagi Patent huquqi shartnomasi (PLT).

Internet saytlar

1. <https://www.lex.uz>;
2. <https://www.ima.uz>
3. <https://www.wipo.int>

